

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

DUSALIYEV ALIJON TOSHPULAT O‘G‘LI

OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQ-GRUNT
QOPLAMLARINING LANDSHAFT GEOKIMYOVIY
XUSUSIYATLARI (MARKAZIY
QISMI MISOLIDA)

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) of
biological science**

Dusaliyev Alijon Toshpulat o'g'li

Orol dengizi qurigan tubi tuproq – grunt qoplamlarining landshaft
geokimyoviy xususiyatlari (Markaziy qismi misolida) 3

Дусалиев Алижон Тошпулат угли

Геохимические особенности почвенно-грунтового покрова дна
высохшего Аральского моря (на примере центральной части)..... 21

Dusaliyev Alijon Tashpulat ugli

Landscape-geochemical characteristics of the soil and ground cover of the
dried bottom of the Aral Sea (a case study of the Sentral part) 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

DUSALIYEV ALIJON TOSHPULAT O‘G‘LI

OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQ-GRUNT
QOPLAMLARINING LANDSHAFT GEOKIMYOVIY
XUSUSIYATLARI (MARKAZIY
QISMI MISOLIDA)

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №V2023.4.PhD/V1066 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining veb-sahifasida (www.soil.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismanov Abduvahob Juraevich

biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev G'ulom

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Abdraxmonov Toxtasin

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «26» dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100179, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. E-mail: info@soil.uz.

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (91 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. E-mail: info@soil.uz.

Dissertatsiyasi avtoreferati 2025 yil « 12 » dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil « 12 » dekabrda № 12 – raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.M.Bobomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

J.M.Ko'ziev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyoda global iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va kam suvli davrning kuchayishi natijasida dunyo miqyosida 13 mln gektar yer turli darajada degradatsiyaga uchragan bo'lib, bu holat 100 dan ziyod mamlakatlarda 3 mlrdga yaqin aholi turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda»¹. Shuning uchun ham Orol dengizi qurigan tubida shakllangan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining landshaft-geokimyoviy holatini aniqlash hamda ularning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishi, tuproqlarga antropogen bosimning kuchayishi va boshqa salbiy jarayonlarni ta'sirida tuproqlarning sho'rlanishi, eroziyaga uchrashi, zaharli (toksik) va og'ir elementlar bilan ifloslanishini oldini olish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tuproqlarni genetik-meliorativ xususiyatlarini yaxshilash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish, landshaft geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz hududlarida tarqalgan yaylov va cho'l tuproqlarida sodir bo'layotgan salbiy jarayonlarni aniqlash, tuproqlar degradatsiyasining oldini olish, agromeliorativ holatini yaxshilash hamda muhofaza qilish borasida keng miqyosli ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida «...atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish»² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham Orol dengizi qurigan tubining markaziy qismida shakllangan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining xossa-xususiyatlarini, geokimyoviy va agrolandschaft-ekologik holatlarini aniqlash orqali ularni yaxshilashga doir ilmiy yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 16-oktabrdagi PQ-3975-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orol bo'yi xalqaro innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 fevraldagi VMQ-132-son «Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda yashil qoplamalar – himoya o'rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022-yil 25-yanvardagi VMQ-41-son «Orol bo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari

¹<https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/c53c6974-3125-4642-b4ed-693d36778008/content/src/html/chapter>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5883-son Farmoni.

rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Orol bo'yi va Orol dengizining qurigan tubida tarqalgan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining paydo bo'lishi va kelib chiqishi, ekologik-meliorativ holati, qurg'oqlanish va sahrolanish jarayonlariga oid tadqiqotlarni xorijlik olimlardan G.Schettler, L.Jiang, Ye.Lioubimseva, N.V.Kimberg, N.I.Zimina hamda respublikamiz olimlari B.B.Jolibekov, V.Ye.Sektemenko, Z.B.Noviskiy, M.M.Toshqo'ziev, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abdurahmonov, Z.A.Jabborov, M.E.Saidova, T.A.Abduraxmonov, A.J.Ismonov, A.U.Axmedov, B.R.Ramazanov, A.B.Mirzambetov, J.A.Egamberdiyev, G.N.Kattayeva, K.A.Idirisov va boshqa olimlar tomonidan o'tkazilgan. Lekin, Orol dengizining markaziy qismida shakllangan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining landshaft geokimyoviy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha yetarlicha ilmiy ishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2020112811 shifrlı «Geoaxborot texnologiyalari asosida Orol dengizi qurigan tubida degradatsiyaga uchragan tuproq-gruntlarni ekologik-meliorativ holatiga oid o'rta masshtabli tuproq kartasini yaratish» (2022-2024-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orol dengizining qurigan tubida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlarining, landshaft geokimyoviy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

quruq iqlim sharoitlarida shakllanayotgan tuproq-gruntlarning morfogenetik xususiyatlarini aniqlash;

Orol dengizining qurigan tubida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlarning kimyoviy, fizik-kimyoviy va meliorativ holatlarini aniqlash;

qurigan dengiz tubida tarqalgan tuproq va tuproq-gruntlari tarkibidagi geokimyoviy elementlar miqdorini va ularning tarqalish areallarini aniqlash;

hududda sodir bo'layotgan qurg'oqlanish va sahrolanish jarayonlarini, agrolandschaft-ekologik holatlariga salbiy ta'sirini aniqlash;

tadqiqot hududi tuproq-grunt qoplamlarining 1:200000 masshtabdagi «Tuproq-grunt», «Degradatsiyaga uchragan tuproq-gruntlar» va «Cho'l-yaylov landshaft» xaritalarini tuzish.

Tadqiqot obyektı sifatida qurigan dengiz tubining markaziy qismida shakllangan qumli cho'l, qoldiq botqoq, tipik sho'rxok, qoldiq o'tloqi-sho'rxok, qatqaloqli sho'rxok, sur tusli qo'ng'ir tuproq va boshqa tuproq-gruntlari xizmat qilgan.

Tadqiqot predmeti tuproqlarni morfogenetik belgilari, granulometrik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, agrokimyoviy xossalari, geokimyoviy elementlarning tarqalishi va akkumulyatsiyasi, tuproq va tuproq-grunt, degradatsiyaga uchragan tuproqlar hamda cho'l-yaylov landshaft xaritalari hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan uslublar bo'yicha amalga oshirilgan. Izlanishlarda genetik-geografik, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotlarda «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnom», Руководство по полевым исследованиям и картированию почв, tuproqlarning kimyoviy tahlillari «Агрохимические, агрофизические и

микробиологические исследования почв и растений» va «Руководство по химическому анализу почв» qo‘llanmalari asosida, geokimyoviy tahlillar «Geokimyoviy yondoshuvlar metodologiyasi» asosida hamda makro va mikroelementlarning yalpi miqdorlari neytron-aktivatsion usuli bo‘yicha, olingan ma‘lumotlarning matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» qo‘llanmasi hamda «Microsoft Excel» dasturida dispersion ishlov yo‘li bilan aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

Orol dengizi qurigan tubida shakllangan tuproq-grunt qatlamlarining kelib chiqishi, rivojlanish jarayoni va morfologik belgilari (rangi, tuzilishi, zichligi, qatlamlari qalinligi) aniqlangan;

qoldiq sho‘rxok tuproq-gruntlarida geokimyoviy elementlar (Na, Cl, SO₄²⁻, Ca²⁺, Mg²⁺, K, HCO₃⁻) ning harakatlanishi, tarqalishi va taqsimlanishi aniqlangan;

qurib qolgan dengiz tubi tuproqlarida geokimyoviy elementlarni konsentratsiyasini litosfera klarkidan yuqori ekanligi, mineral tuzlarning bug‘lanish jarayonlarida ular bilan birga Na, Mg, Ca, Cl, S va boshqa elementlarning tuproq-gruntning yuqori qatlamlarida akkumulyatsiyalanishi bilan bog‘liqligi asoslangan;

qurigan dengiz tubi markaziy qismi tuproq-gruntlarining geomorfologik va geokimyoviy xususiyatlarini landshaft-geokimyoviy tipologiyasi (geomorfologik sharoit, iqlim, o‘simlik qoplami va moddalar aylanishi, miqdori, migratsiya yo‘nalishi) aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

sahrolanish va qurg‘oqlanish natijasida qurigan dengiz tubida shakllangan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarida 1:200000 masshtabli «Tuproq-grunt xaritasi» tuzilgan;

tadqiqot hududida tarqalgan tuproq va tuproq-gruntlari uchun 1:200000 masshtabda «Degradatsiyaga uchragan tuproq-gruntlar xaritasi» ishlab chiqilgan;

hududning tuproq-grunt qoplamlarining 1:200000 masshtabda «Cho‘l yaylov landshaft xaritasi» tuzilgan;

tadqiqot tuproqlari va tuproq-gruntlarining yuza qatlamlarida geokimyoviy elementlari litosfera klarkidan – Itterbiy (Yb) -1,2-8,0; kalsiy (Sa) - 1,0-4,9; seriy (Se) - 1,1-7,7; stronsiy (Sr) - 1,1-7,9; seziy (Cs) - 1,2-1,6 va surma (Sb) - 1,2-2,2 barobar yuqori ekanligi aniqlangan;

qurigan dengiz tubida shakllangan tuproq-gruntlaridan samarali foydalanish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish va tiklashga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqotlarda dala, laboratoriya, kameral hamda umumqabul qilingan usullaridan foydalanilganligi, olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy va amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan nufuzli xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Orol dengizi qurigan tubida shakllangan tuproq-grunt qatlamlarini kelib chiqishi, rivojlanish jarayoni va morfologik belgilarini aniqlanganligi, qoldiq sho‘rxok tuproq-gruntlarida geokimyoviy elementlarni harakatlanishi, tarqalishi va taqsimlanganligi, qurib qolgan

dengiz tubi tuproqlarida geokimyoviy elementlarni konsentratsiyasini litosfera klarkidan yuqori ekanligi, mineral tuzlarni bog‘lanish jarayonlarida ular bilan birga Na, Mg, Ca, Cl, S va boshqa elementlarni tuproq-gruntini yuqori qatlamlarida akumulatsiyalanishi bilan bog‘liqligi, qurigan dengiz tubi markaziy qismi tuproq-gruntlarining geomorfologik va geokimyoviy xususiyatlarini landshaft-geokimyoviy tipologiyasi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari shundan iboratki, Orol dengizini markaziy tuproq-grunt, degradatsiyaga uchragan tuproq-grunt, hamda cho‘l-yaylov xaritalari ishlab chiqilgan bo‘lib, qurigan dengiz tubi markaziy qismida shakllangan tuproq-gruntlarining landshaft geokimyoviy xususiyatlarini, ekologik meliorativ holatini yaxshilash, hudud tuproq va tuproq-gruntlarining yuza qatlamida geokimyoviy elementlar litosfera klarkidan Itterbiy (Yb) -1,2-8,0; kalsiy (Sa) - 1,0-4,9; va surma (Sb) - 1,2-2,2 barobar yuqori ekanligi va dengiz tubida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlaridan samarali foydalanish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish yoki yumshatishga doir tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orol dengizi qurigan tubining markaziy qismida shakllangan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarini landshaft geokimyoviy xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Orol dengizi qurigan tubining markaziy qismini 1679847 gektar yer maydonida 1:200000 masshtabli «Tuproq va tuproq-grunt xaritasi» Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligida amaliyotga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 03-iyul 01/01-2362-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu tuproq-grunt xaritasi ma‘lumotlari asosida yer resurslaridan samarali foydalanish va boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

Orol dengizining qurigan tubi markaziy qismini 1679847 gektar yer maydonida «Cho‘l yaylov landshaft xaritasi» Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 03-iyul 01/01-2362-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yangi ihot o‘rmonzorlarini tashkil etish bo‘yicha tadbirlar belgilash imkonini bergan.

Orol dengizi qurigan tubining markaziy qismini 1679847 gektar maydonda «Degradatsiyaga uchragan tuproq-gruntlar xaritasi» Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 03-iyul 01/01-2362-son ma‘lumotnomasi). Natijada, degradatsiya darajasiga qarab, qurigan dengiz tubida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlarini meliorativ va ekologik xolatini tiklashga oid chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, dissertatsiya ishini nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Orol dengizi qurigan tubida tarqalgan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining o'rganilganlik darajasi**» (Adabiyotlar sharhi) deb nomlangan birinchi bobida mavzu dorasida olib borilgan izlanishlar bo'yicha xorijiy va respublika olimlarining tadqiqot natijalari atroflicha tahlil qilingan.

Shuni aytish joizki, Orol dengizi qurigan tubi hududlarida olib borilgan izlanishlarda ma'lum darajada ilmiy natijalar olingan. Lekin, Orol dengizi qurigan tubi tuproq-grunt qoplamlarining landshaft geokimyoviy xususiyatlari bo'yicha markaziy qismida yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagan. Shu sababli, mazkur dissertatsiya ishida ushbu masalalar ma'lum darajada o'rganilib kerakli xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Orol dengizi qurigan tubida tarqalgan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining tabiiy-geografik sharoitlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilgan hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, geografik joylashish o'rni, geologik-geomorfologik tuzilishi, rel'efi, o'simliklar qoplami, inson omilining ta'siri, tuproq-grunt qoplami va sistematikasi, tadqiqot obyekti, uslublari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Orol dengizi qurigan tubining markaziy qismida tarqalgan tuproqlar va tuproq-gruntlari tanlangan. Qurigan dengiz tubining markaziy qismi 1679847 gektar bo'lib, hududning katta maydonini qoldiq sho'rxoklar tashkil etib, jumladan qoldiq sho'rxoklar 33,80%, qumli cho'l tuproqlar 30,28%, qoldiq o'tloqi sho'rxoklar 23,1%, qoldiq botqoqlar 7,1%, tipik sho'rxoklar 2,37%, sur tusli qo'ng'ir tuproqlar 1,97% qoldiq ko'llar 0,5% va qumli tepaliklar 0,88 foizni tashkil etadi.

Tadqiqotlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan uslublar bo'yicha amalga oshirildi. Izlanishlarda genetik-geografik, litologik-geomorfologik, qiyosiy – geokimyoviy, kimyoviy-analitik hamda kameral-tahliliy va kartografiya usullaridan foydalanilgan.

Qurigan dengiz tubi markaziy qismining tabiiy sharoitlari o'rganilganda, hudud o'zining litologik va geologik tuzilishlari bilan bir biridan keskin farqlandi. Hududning markaziy qismida tarqalgan tuproqlar tarkibidagi geokimyoviy elementlarning miqdori va ularning tuzilishi, agrolandshaft ko'rinishi, bevosita cho'l iqlim sharoiti bilan chambarchas bog'liq ekanligi kuzatildi.

Dissertatsiyani «**Dengizning suvdan bo'shagan markaziy qismi tuproq va tuproq-gruntlarining morfologik tavsifi, mexanik va agrokimyoviy xossalari**» deb

nomlangan uchinchi bobida dengizning qurigan tubidagi tuproq va tuproq-gruntlarining morfologik xususiyatlari, mexanik tarkibi, agrokimyoviy xossalari bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Bobning «*Dengizning qurigan tubidagi tuproq va tuproq-gruntlarining morfologik xususiyatlari*» deb nomlangan paragrafida qurigan dengiz tubida shakllangan qumli cho'l, sur tusli qo'ng'ir, qoldiq botqoq, qoldiq o'tloqi tuproqlari hamda qoldiq o'tloqi sho'rxok, qatqaloqli sho'rxok va tipik sho'rxok tuproq-gruntlarini morfologik belgilari va morfo-genetik xususiyatlariga doir ma'lumotlar keltirilgan.

So'ngi vaqtlarda Orol bo'yi hududlarida tabiiy va antropogen omillarning kuchayishi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik holatning yomonlashishi natijasida, qurigan dengiz tubining ba'zi bir hududlarida minerallashgan yer osti suvlari yuzaga yaqin ko'tarilgan bo'lsa, qolgan maydonlarda qurg'oqlanish va sahrolanish jarayonlarining faollashishi oqibatida, hududda shakllangan gidromorf rejimdagi tuproq va tuproq-gruntlari avtomorf rejimdagi tuproqlarga aylanish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Qurigan dengiz tubi hududlarida daryo yotqiziqlarida turli xil tuproq-grunt guruhlari ham shakllana boshlagan. Yangidan shakllangan tuproq-gruntlar, hududning tuproq-iqlim sharoitlari, litologik va gidrogeologik hamda agrolandshaft tuzilishiga bog'liq holda rivojlangan. Orol dengizining markaziy qismida yangi bosqichda rivojlanayotgan tuproq-gruntlarning morfogenetik belgilari o'rganilganda, u yerda bir qancha tuproq-gruntlari shakllanganligi qayd etildi.

Ushbu bobning «*Orol dengizi qurigan tubida tarqalgan tuproq va tuproq-gruntlarining granulometrik tarkibi*» deb nomlangan paragrafida sahrolanish jarayonlari ta'sirida dengizni suvdan bo'shagan hududlarida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlarining granulometrik tarkibiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Qurigan dengiz tubi hududida tarqalgan sur tusli qo'ng'ir tuproqlarning granulometrik tarkibi qumloqlardan tashkil topgan bo'lib, bu tuproqlarning granulometrik tarkibi hududda tarqalgan boshqa tuproq va tuproq-gruntlarnikidan keskin farq qiladi.

Hudud tuproqlarini granulometrik tarkibi kesa profilining, ustki qismidan pastga tomon og'irlashib yoki yengilashib borish holatlari ham tadqiqotlarimizda qayd etildi.

Orol dengizining markaziy qismida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlari granulometrik tarkibi turlicha bo'lib, undagi mexanik zarrachalar qoldiq sho'rxok, qoldiq o'tloqi sho'rxok, sur tusli qo'ng'ir, qumli cho'l, qatqaloqli sho'rxok va tipik sho'rxoklarda yirik qum zarrachalari miqdori (34,4-69,2 %) ustunlik qildi. Ular yengil qumoqli, qumloqli va qumli granulometrik tarkibdan iborat, ba'zi qoldiq o'tloqi, qoldiq o'tloqi sho'rxok va qoldiq sho'rxoklarda fizik loy miqdori 21,1-48,8% bo'lgani holda, ushbu tuproq va tuproq-gruntlar yengil, o'rta va og'ir qumoqli granulometrik tarkiblardan tashkil topgan.

Qumli cho'l tuproqlari, Orol dengizining markaziy qismida katta maydonni egallaydi. O'rganilgan qumli cho'l tuproqlarning yuza qismi deflyatsiya natijasi va eol jarayonlar ta'sirida yillar davomida turli xil o'zgarishlarga uchragan. Qumli cho'l tuproqlari cho'l zonasining avtomorf tuproqlari orasida qulay tabiiy sharoitlarga

egaligi bois, o'simliklar doimiy o'sib rivojlanib borgan. Bu tuproqlar gumusga kambag'al bo'lib, lekin, o'simlik ildizlari va qoldiqlarini tez minerallashuviga davriy namlik va issiqlik yordam bergan.

Ushbu qumli cho'l tuproqlarida genetik qatlamlarning shakllanishi, asosan qum fraksiyalar miqdorlarini mutonosib holdagi o'zgarishi, quyi qatlamlarda mayda chang fraksiyalarini ortganlikdagi farqlanishlari kuzatildi.

Bobning «*Tadqiqot ob'ektida tarqalgan tuproq va tuproq-gruntlarini agrokimyoviy xossalari*» deb nomlangan paragrafida Orol dengizi qurigan tubini markaziy qismida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlarining agrokimyoviy xossaxususiyatlari yoritilgan.

Orol dengizi qurigan tubining markaziy qismida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlarining agrokimyoviy kursatgichlari, dala tadqiqotlarida olib kelingan tuproq namunlarida bajarilgan kimyoviy tahlil ma'lumotlari asosida yoritiladi.

Qumli cho'l tuproqlarida - gumus miqdori kesma profili bo'ylab juda kam darajada ta'minlanganligi, tuproq profilining yuqori qatlamidan pastki tomon kamayib borganligi kuzatiladi. Qumli cho'l tuproqlarining yuqori qatlamlarida gumus miqdori 0,214-0,354 foizni, pastki qatlamlarida 0,119-0,22 foizni tashkil etadi. Ushbu tuproqlarda umumiy azot miqdori 0,014-0,033% oralig'ida, fosfor 0,175-0,270% va kaliy 0,120-1,908% bo'lib, azot va uglerod nisbati gumus miqdoriga mos holda 5,3-10,9 foizni tashkil etdi, ya'ni gumus va azot bilan juda yuqori, yuqori va o'rtacha darajada ta'minlangan.

Sur tusli qo'ng'ir tuproqlarning - agrokimyoviy kursatgichlari boshqa tuproqlarning agrokimyoviy kursatgichlariga qaraganda oziqa moddalar dan gumus bilan juda kam darajada ta'minlangan bo'lib, tuproqning yuza 0-9 sm li qatlamida o'rtacha 0,69 foizdan, kesmaning pastki qatlamlarida esa 0,20 foizni tashkil etgandi. Gumusning miqdori sezilarli darajada o'zgarib, pastga tomon kamayib borishi qayd etildi. Azotning yalpi miqdori tuproqlarning yuqori qatlamlarda 0,058% bo'lib, tuproq profilining pastki qatlamlarida 0,014 foizni tashkil etdi.


Qoldiq botqoq tuproqlar - Orol dengizi qurigan tubida shakllanayotgan yuza qismi o'simliklar bilan doimiy qoplanib turishi sababli, bu tuproq gruholari shu yerda shakllangan tuproqlar orasida chirindiga boy tuproqlar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib biz o'rgangan, qoldiq botqoq tuproqlarni yuqori qatlamlarida gumus miqdori o'rtacha 1,34 foizda ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga tuproq profilini pastki qatlamlarida gumus miqdori o'rtacha 0,15 foizni tashkil etib, tuproq profilining yuqori qatlamiga nisbatan pastki qatlamida gumus sezilarli darajada kamayib borganligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning «**Tuproq-gruntlarining fizik-kimyoviy xossalari va meliorativ holati**» deb nomlangan to'rtinchi bobida qurigan dengiz tubida shakllangan tuproq va tuproq-grunt qoplamlarini meliorativ holati, ularda tuzlarning sifat va komponent tarkiblari, umumiy va zaharli tuzlar, karbonat va gipslar hamda tuproq muhiti ko'rsatgichlarini o'zgarishi, singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning «*Tuproq va tuproq-grunt qoplamlarining meliorativ xolati*» deb nomlangan paragrafida dengizni suvdan chekingan markaziy qismida shakllangan qumli cho'l, sur tusli qo'ng'ir, qoldiq botqoq, qoldiq o'tloqi, qoldiq o'tloqi sho'rxok,

qatqaloqli sho‘rxok va tipik sho‘rxok tuproqlarni meliorativ holatiga doir izlanishlar natijalari keltirilgan.

Tadqiqotda tuproq va tuproq-gruntlari ning sho‘rlanish darajasi turli darajada bo‘lib, har bir tuproq tipchalari va tuproq-gruntlaridagi sho‘rlanish darajasi o‘zi xos bo‘lgan xossa-xususiyatlarga mos holda tavsiflandi. Ularda suvda oson eruvchi tuzlardan asosiy quruq qoldiq, xlor va sulfatlar miqdori bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgichlar qatqaloqli sho‘rxok tuproq-gruntlarida (quruq qoldiq 20,04-13,84%, xlor 8,67-1,75% va sulfat 3,77-0,420%) va qoldiq sho‘rxok (15,19-1,51%; 6,37-0,43% va 3,16-0,42%) tuproqlarda kuzatildi, ular juda kuchli sho‘rlangan tuproq va tuproq-gruntlari hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot hududi tuproq va tuproq-gruntlaridagi quruq qoldiq, xlorid va sulfatlar miqdori, % hisobida

Tuzlar miqdoriga ko‘ra qoldiq o‘tloqi, tipik sho‘rxok, qoldiq o‘tloqi sho‘rxoklar, sur tusli qo‘ng‘ir, qumli cho‘l va qoldiq botqoq tuproq va tuproq-gruntlari ketma-ketlikida tavsiflandi. Ular juda kuchli kuchli o‘rtacha kuchsiz darajada sho‘rlangan. Bunda o‘rtacha va kuchsiz sho‘rlanish darajasiga ega bo‘lgan ko‘rsatgichlar sur tusli qo‘ng‘ir, qumli cho‘l va qoldiq botqoq tuproqlariga to‘g‘ri keldi.

Bobning «Orol dengizi qurigan tubi tuproq va tuproq-gruntlaridagi tuzlarning sifat va komponent tarkiblari, umumiy va zaharli tuzlar miqdori» deb nomlangan paragrafida, hududning markaziy qismida shakllangan qumli cho‘l, sur tusli qo‘ng‘ir, qoldiq botqoq, qoldiq o‘tloqi, qoldiq o‘tloqi sho‘rxok, qatqaloqli sho‘rxok va tipik sho‘rxok tuproq va tuproq-gruntlarida tuzlarning sifat va komponent tarkiblari, umumiy va zaharli tuzlar miqdorlari keltirilgan.

Orol dengizini qurigan tubining markaziy qismidagi tuproq va tuproq-gruntlarini sho‘rlanish darajasi bilan birgalikda suvda oson eruvchi tuzlarning sifat va komponent tarkiblari, umumiy va zaharli tuzlar miqdori solishtirilgan.

Qurigan dengiz tubi tuproq va tuproq-gruntlari turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, tadqiqot olib borilgan hududda katta miqdorda zaharli tuzlar mavjud ekanligi aniqlandi. Orol dengizi qurigan tubida tarqalgan tuproq va tuproq-gruntlar ko‘proq NCO_3^- , Cl^- , SO_4^- , CO_3^- , anionlari va Ca^{2+} , Mg^{2+} , Na^+ kationlarning o‘zaro ekvivalent miqdorda reaksiyasi brikishi natijasida hosil bo‘lgan tuzlar asosida shakllangan.

«Vozrojdeniya» orolida shakllangan cho‘l tuproqlarini qatlamlari bir-biridan keskin farq qilib, umumiy tuzlar yig‘indisidan zaharli tuzlarining ulushi 24,5-86,7 % foizni tashkil etdi. Tipik sho‘rxoklardan olingan tuproq kesmalarida grunt suvlarining chuqurligi 1,8-2,5 m oralig‘ida tebranib, juda kuchli minerallashgan. Ushbu sho‘rxoklarda CaSO_4 tuzi 35 foizni, Na_2SO_4 tuzi 30 foizni, NaCl -17 foizni, MgCl_2 va CaCl_2 7 foizni, $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ 4 foizni tashkil etdi. Ushbu tuproqlarda umumiy tuzlar yig‘indisi quruq qoldiq bo‘yicha 1,213-2,077 foizni, shundan $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ tuzlari 0,032-0,049 foizni 0,124-0,984 foizni tashkil etdi.

Tuproq va tuproq-gruntlar tarkibidagi tuzlarning sifat va komponent tarkiblarida ham sezilarli o‘zgarishlar mavjud. Sulfatli va xlorid-sulfatli sho‘rlanish tipidagi tuzlarning sifat tarkiblarini, tabiiyki, CaSO_4 , Na_2SO_4 , MgSO_4 tashkil etdi. Bunda natriy sulfat (Na_2SO_4) tuzi yetakchi o‘rinni egallaydi, keyingi o‘rinlarni mos ravishda CaSO_4 va MgSO_4 tuzlari turadi, biroq MgSO_4 tuzi asosan qumli cho‘l va sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda kuzatilib, barcha tuproq-gruntlarda ham uchramaydi.

Sho‘rlanish darajasi ortib borgani sari, sulfatli va xlorid-sulfatli sho‘rlanish tiplari sulfat-xloridli, ba‘zan xloridli sho‘rlanish tiplari bilan almashdi. Tuzlar tarkibida xlor ioni miqdorining ortib borishi kuzatildi. Xlor tuzlari orasida natriy xlorid (NaCl) tuzi dominantlik qilib, keyingi o‘rinni magniy xlorid (MgCl_2) tuzi egalladi. O‘ta zaharli hisoblangan CaCl_2 tuzi kam uchraydi. O‘rganilgan hudud tuproqlarining ustki ildiz qatlamidagi (0-3, 0-60 sm) tuzlarning sifat tarkiblari ma‘lumotlarining ko‘rsatishicha, gipotetik tuzlarda $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$, NaHCO_3 va Na_2CO_3 lar qayd etilmadi. CaCl_2 va MgSO_4 tuzlari ayrim tuproq kesmalaridagina kuzatildi. NaCl tuzi esa ko‘pchilik tuproq namunalarida bor ekan, $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ va CaSO_4 tuzlari esa barcha tuproq namunalarida qayd qilindi.

Ushbu bobning «*Tuproq va tuproq-gruntlarida karbonat va gipslar miqdorlari hamda tuproq muhiti ko‘rsatgichlarini o‘zgarishi*» deb nomlangan paragrafida qurigan dengiz tubida shakllangan tuproq va tuproq-gruntlaridagi karbonat va gips miqdorlari hamda tuproq muhiti ko‘rsatgichlari aniqlangan.


O‘rganilgan tuproq va tuproq-gruntlaridagi gips miqdori qumli cho‘l tuproqlarining yuqori qatlamlaridan pastki qatlamlar tomon kamaygan holda 0,799-4,002 foizni tashkil etdi. Ushbu miqdor bo‘yicha qumli cho‘l tuproqlari gipslashmagan ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} < 10\%$) guruhni tashkil etdi. Ushbu tuproq va tuproq-gruntlarida karbonatlar (CO_2) miqdori aksincha quyi qatlamlar tomon oshganligi kuzatilib, profil bo‘ylab 7,97-16,80 foizni tashkil etdi. Tuproq va tuproq-gruntlar eritmasi muhiti (reaksiyasi) asosan 7,16-7,85 oralig‘ida tebranib kuchsiz ishqoriy muhitga ega. Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda gips va karbonatlar miqdori tuproq profilida 0,166-1,622 foiz va 0,54-5,54 foizni tashkil etgan holda, gipslashmagan, (<10 %) ba‘zan 93-130 sm li qatlamlarida gips va karbonatlar miqdori keskin oshganligi, ya‘ni 4,01 foizdan 14,510 foizgacha ortib borishi kuzatildi. Ushbu qatlam kuchsiz gipslashgan hisoblanadi.

Tuproq eritmasida CO_2 miqdorining ortishi CaCO_3 ning eruvchanligini ortishi va kalsiy karbonatni qisman bikarbonatga aylanishi bilan bog‘liq. Tuproq tarkibida bikarbonatlarni (HCO_3) shakllanishi bilan tuproqning ishqoriylik xususiyati ortib boradi va pH ko‘rsatkichining keskin ortishi soda (NaCO_3) hosil bo‘lishiga olib keladi.

Bobning «*Tuproq va tuproq-gruntlarning singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi*» deb nomlangan paragrafida o'rganilgan tuproqlarda singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Tuproq va tuproq-gruntlardagi gumus miqdori va granulometrik tarkibiga bog'liq xolda tipik sho'rxoklar, qoldiq sho'rxoklar, qatqaloqli sho'rxoklarda singdirish sig'imi 10,38-19,13 mg-ekv ni qumli cho'l va sur tusli qo'ng'ir tuproqlarida 4,13-8,97 mg-ekvni tashkil etdi. Qoldiq o'tloqi va qoldiq botqoq tuproqlarda singdirish sig'imi 6,36-16,79 va 6,47-8,61 mg-ekv oralig'ida tebranib turdi. Ushbu tuproq va tuproq-gruntlarda kalsiyni ulushi magniydan 1,1-3,1 barobar yuqori, aksincha tipik sho'rxoklar, qoldiq sho'rxoklar, qatqaloqli sho'rxoklarda magniyni miqdori kalsiydan 1,1-2,3 barobar ortiqligi aniqlandi.

Tuproq va tuproq-gruntlarning singdirish sig'imidagi singdirilgan natriy miqdoriga ko'ra, ular turli darajada sho'rtoblashgan va sho'rtoblashmagan guruhlariga mansub (2-rasm).



2-rasm. Tadqiqot hududi tuproq va tuproq-gruntlarining singdirish sig'imidagi singdirilgan Na miqdori, % hisobida

Singdirilgan natriy miqdori bo'yicha tuproqlar kuchsiz (6,4-8,7%), o'rtacha (10,6-15,7%) sho'rtoblashgan (38,0-65,7%) xamda sho'rtoblashmagan (2,5-3,6 %).

Dissertatsiyani «**Orol dengizi qurigan tubi tuproqlarining geokimyoviy xususiyatlari**» deb nomlangan beshinchi tadqiqot tuproq va tuproq-gruntlarining geokimyoviy elementlarni tarqalishi va akkumlyatsiyasiga doir tahliliy ma'lumotlari bayon etilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida tematik xaritalar yaratish, uning ahamiyatiga doir izlanish natijalari keltirilgan.

Bobning «*Geokimyoviy elementlarning dengiz qurigan tubi tuproq va tuproq-gruntlaridagi holati*» deb nomlangan paragrafida qurigan dengiz tubida tarqalgan tuproq va tuproq-gruntlarida geokimyoviy elementlarning akumlyatsiyasi va to'planishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).


Tadqiqot tuproq-gruntlari va tuproqlardagi asosiy geokimyoviy elementlarni klark konsentratsiya miqdori, mg/kg hisobida

Kesma № va tuproq nomi	Chuqurlik, sm	Sm	Lu	Yb	Ca,%	La	Ce	Tb	Sr	Cs	Fe,%	Sb
Litosfera klarki Vinogradov bo'yicha		8,0	0,8	0,3	2,5	29	7	13	340	3,7	4,7	0,5
47. Qumli cho'l	0-5	5,8	0,23	2,4	9,1	25	54	0,65	390	6,1	3,87	1,1
	5-40	3,8	0,23	0,3	7,3	24	51	0,66	360	6,0	3,62	1,3
	40-80	3,8	0,23	2,2	7,6	24	52	0,64	350	4,7	3,15	0,78
	80-120	3,7	0,21	2,2	8	25	50	0,65	500	3,9	2,68	0,60
63. Qoldiq botqoq	0-6	0,56	0,041	0,35	3,39	3,8	8	0,093	290	0,62	0,35	0,23
	6-21	2,3	0,14	1,4	6,7	15	31	0,42	320	3,8	2,2	1,60
	21-42	2,9	0,17	1,8	8,2	19	40	0,52	380	4,2	2,83	0,57
	42-80	3,1	0,20	1,9	8,54	21	44	0,52	270	4,9	3,15	0,51
	80-125	3,5	0,22	2,3	9,4	24	47	0,57	280	5,7	3,85	0,80
	125-170	3,2	0,21	2,2	9,72	23	47	0,56	440	5,8	3,93	0,78
94. Sur tusli qo'ng'ir	0-9	1,9	0,15	1,4	2,4	11	25	0,3	240	2,0	1,18	0,40
	9-28	2,6	0,15	1,4	1,6	15	31	0,39	180	2,3	1,37	0,47
	28-64	2,8	0,2	2,1	1,55	19	38	0,47	180	2,8	1,44	0,47
	64-93	2,7	0,17	1,8	4,4	16	34	0,43	440	3,1	1,63	0,31
	93-130	2,8	0,18	1,8	1,1	15	35	0,42	180	2,4	1,26	0,47
	130-152	2,5	0,21	1,9	2,19	16	33	0,43	660	3,2	1,69	0,42
	152-186	2,3	0,19	1,7	1,53	14	29	0,37	330	2,4	1,25	0,39
135. Qoldiq o'tloqi	0-10	3,5	0,20	1,8	31,2	21	27	0,57	780	1,1	0,56	0,24
	10-35	2,3	0,19	1,8	30,9	17	18	0,48	640	1,0	0,52	0,18
	35-75	2,7	0,20	1,9	31,2	17	20	0,52	770	1,1	0,64	0,47
	75-135	2,0	0,17	1,5	16,6	13	22	0,32	890	1,0	0,74	0,35
69. Qoldiq o'tloqi sho'rxok	0-6	3,0	0,18	1,7	7,31	17	35	0,45	300	4,4	2,68	0,61
	6-30	1,5	0,082	0,75	4,64	20	35	0,23	320	1,5	1,01	0,28
	30-70	3,5	0,16	1,6	7,19	16	34	0,43	340	4,1	2,51	0,62
	70-103	3,6	0,20	2,0	9,3	23	45	0,58	390	5,1	3,33	0,84
	103-155	3,5	0,20	1,9	9,04	21	43	0,55	430	5,5	3,46	0,64
85. Tipik sho'rxok	0-3	1,0	0,09	0,84	8,65	7,9	17	0,21	790	1,5	0,87	0,38
	3-19	1,7	0,11	1,1	9,25	10,8	23	0,27	950	0,51	1,48	0,48
	19-50	2,2	0,14	1,4	11,2	16	32	0,37	1140	0,53	2,06	0,56
	50-87	2,7	0,18	1,7	9,07	19	38	0,45	850	3,9	2,49	9,70
	87-140	3,2	0,20	1,9	7,97	21	44	0,5	520	4,9	3,0	0,58
	140-200	2,8	0,18	1,8	9,72	20	40	0,44	790	4,1	2,42	0,56
130. Qoldiq sho'rxok	0-4	1,9	0,18	1,7	9,58	15	27	0,34	750	1,2	0,69	0,34
	4-30	2,2	0,12	1,2	8,38	13	25	0,34	620	1,9	1,41	0,36
	30-49	2,4	0,15	1,4	7,47	17	33	0,36	590	3,0	1,90	0,38
	49-69	2,6	0,16	1,6	8,59	21	42	0,43	520	2,9	2,12	0,62
	69-90	2,7	0,18	1,8	7,91	38	70	0,44	450	2,8	1,81	0,50
	90-150	2,1	0,15	1,4	7,9	15	29	0,35	430	2,1	1,29	0,41
	150-200	2,1	0,12	1,2	12,3	15	26	0,32	740	2,3	1,46	0,45
110. Qatqaloqli sho'rxok	0-8	0,51	0,079	0,73	12,3	5,6	8,9	0,16	2700	0,64	0,32	0,4
	8-21	0,74	0,061	0,64	15,2	5,8	10	0,16	2700	0,59	0,28	0,44
	21-55	0,08	0,006	0,08	2,28	0,69	1,5	<0,1	680	0,08	0,07	0,037
	55-80	0,51	0,064	0,59	17,4	7,2	13	0,17	2700	0,84	0,48	0,27
	80-102	1,10	0,084	0,68	17,8	7,4	14	0,2	2700	1,0	0,86	0,43

Tadqiqot hududi tuproq va tuproq-gruntlarini kesma profilida geokimyoviy elementlarning notekis taqsimlanganligi kuzatildi. Ularda ko'rsatgich miqdorlari bo'yicha qatqaloqli sho'rxoklarda litosfera klarkiga nisbatan eng yuqori konsentratsiya klarki, bu Sr elementi (2700 mg/kg) ga to'g'ri keldi. Shu bois, bu tuproq-gruntlarida stronsiy ko'p miqdorda akumlyatsiyalandi. Moddalarning migratsiyasi jarayonida tabiiy suvlarda qattiq jinslar va loyqalar muallaq holida harakatlanadi va Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarida bu holat tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Umuman olganda, geokimyoviy muhit o'zgaruvchan bo'lib, shu bois ushbu muhitda elementlarning doimiy ta'minlanishi yuzaga keladi va ayrim hududlarda qisman muvozanatda bo'lib turishi kuzatildi.

O'rganilgan qoldiq o'tloqi tuproqlarda ittirbiy (Yb) elementining o'rtacha miqdori 1,5 mg/kg dan 1,9 mg/kg oralig'ida tebranib, litosfera klarkidan 4-5 barobar yuqori ekanligi qayd etildi.

